

## O'zbek Va Ingliz Tillarida IT Zoonimli Ayrim Maqollarning Kognitiv-Semantik Tahlili

Nazarov Qobilbek<sup>1</sup>

**Annotatsiya:** Ushbu maqlada o'zbek va ingliz tillaridagi zoonim komponentli maqollar tahlil qilingan va tavsiflash usulidan foydalanilgan. To'plamlardan tanlab olingan maqollar ijobiy va salbiy ma'nolardagi konsepsiyalarga ega zoonim komponentli maqollar muloqot jarayonida nafaqat g'oyalarni yetkazishga, balki ushbu g'oyalalar orqali o'z qarashlari, tajribalari va kundalik hayotidagi holatlarni turli ko'rinishda ifodalashga harakat qiladi.

**Kalit so'zlar:** manba maydoni, nishon maydoni, maqol, kognitiv-semantik tahlil, konsept, metaforik ma'no.

### 1. KIRISH

Maqollar murakkab va har tomonlama tadqiq etishni talab qiladigan birliklar hisoblanadi. Maqollarni ilmiy jihatdan o'rganishda juda ko'p sohalarga murojaat qilish lozim. Bu soha tadqiqi ko'pincha mahalliy xalq va uning adabiyoti bilan bog'lanadi. Shuning uchun maqollar allaqachon xalqlar madaniyatining bir qismiga aylanib ulgurgan. Bu jarayonni maqollarning har bir xalqda o'ziga xos tarzda paydo bo'lishida ham ko'rish mumkin. Mieder fikriga ko'ra maqollar qisqa va formulalii tildagi kundalik tajribalar va oddiy kuzatishlarni o'z ichiga oladi. Shuningdek, og'zaki hamda yozma nutq jarayonida xotirada oson saqlash va samarali qo'llash uchun tayyor birliklar hisoblanadi [1,11]. Maqollar kundalik tajribalar va insonlarning o'z hayoti davomidagi kuzatishlari natijasida paydo bo'lishi muayyan omillar ta'sirida yuz beradi. Ya'ni xalqning tafakkuri, madaniyati va dini bu jarayonda muhim o'rinn tutadi. Shuning uchun maqollar orqali mahalliy xalq madaniyati, dunyoqarashi, fikrashi avloddan avlodga o'tib keladi.

Yuqoridagi fikrlarni hisobga olgan holda maqollarning tillarda turli konseptlarga asoslanishini kuzatish mumkin. Konseptlarning paydo bo'lishi bevosita idrok bilan bog'liq. Lakoff va Johnson fikriga ko'ra fikrimiz boshqaruvchi konsept nafaqat intellekt bilan bog'liq, balki konseptlar ham bizning kundalik faoliyatimizdagi eng oddiy detallarga ta'sir o'tkazadi [2, 3].

Lakoff va Turner hayvonlar haqida bizning ongimizda bir nechta tushunchalar mavjudligi va bu hayvonlarni qanday tasavvur qilish, o'yash va ular haqidagi umumiy tushunchalar bilan bog'liq metaforik sxemani tashkil qilishini ta'kidlaydi. Masalan, *sher* olivjanoblik va jasurlik, *bo'ri* qasoskorlik va shafqatsizlik, *tulki* aqlililik va ayyorlik, *it* sodiqlik, *cho'chqa* ifloslik va qo'pollik ramzi deb tessavur qilinadi [3].

Sameer ingliz va arab tillari itlar va otlar bilan bog'liq maqollarni qiyoslaydi. Natijalar ingliz va arab tillaridagi *it* va *ot* komponentli maqollarda tushunchalar, ijtimoiy qadriyatlar va aqliy jarayonlar bir xil ekanligini ko'rsatdi. Ikki tilda ham otlarni olijanob, itlarni esa yomon va tartibsiz sifatida ko'rsatadi [4,4].

Maqollar ustida olib borilgan ushbu tadtqiqotda o'zbek va ingliz tillaridagi maqollar kognitiv-semantik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Bunda aynan zoonim komponentli maqollar tanlab olingan. Bunga sabab odamlarning ijtimoiy, ma'naviy va diniy bilimlari shakllanishida hayvonlar ham muhim o'rinn tutishidir. Tarixan insonlar faoliyati hayvonlar bilan bog'liq bo'lganligi uchun muloqot jarayonida hayvon nomlari qatnashgan maqollar ko'chimga uchragan holda konseptuallashtirilgan. Har bir xalq

<sup>1</sup> O'zbekiston davlat, jahon tillari universiteti o'qituvchisi



tilida hayvon nomlari bilan bog'liq konnotativ ma'nolarni turli vaziyatlardan kelib chiqib turli shakllarda uchratishimiz mumkin.

## 2. ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT METODLARI

Tadqiqot uchun ma'lumotlar o'zbek va ingliz tillaridagi maqollarni o'z ichiga olgan K.M.Karamatova va H.S.Karamatov [5], Sh.Shomaqsudov, Sh.Shorahmedov [6], T.Mirzayev, A.Musoqulov, B.Sarimsoqov [7] kabi tilshunos olimlarning to'plamlaridan tanlab olindi. Shuningdek, ingliz tilidagi maqollarni tahlil qilishda Jennifer Speake tahriridagi The Oxford Dictionary of Proverbs [8] nomli maqollar lug'ati manba bo'lib xizmat qiladi. Ushbu tadqiqotda zoonim komponentli o'zbek va ingliz tillaridagi maqollar kognitiv-semantic jihatdan tahlil qilingan. Yuqoridagi to'plamlardan tanlab olingan maqollar Lakoff va Turnering manba maydoni (source domain) va nishon maydoni (target domain) nazariyasiga ko'ra o'r ganilgan [3]. Shuningdek, yuqorida qayd etilgan Lakoff va Turnering konseptual metafora tahlil modeliga ko'ra Buyuk zanjir metaforasi va metonimiyasi nazariyasiga ko'ra maqollar ma'nosi ko'rib chiqildi [3, 162-173]. Bunday tavsiflash orqali o'zbek va ingliz tillarida zoonim komponentli maqollarni kognitiv jihatdan tushunish modeli ishlab chiqiladi.

Tadqiqot obyekti sifatida o'zbek va ingliz tillarida faol qo'llaniladigan maqollar tanlab olingan. Maqollarni tanlab olishda ularning shu xalq tilida qay darajada ko'p qo'llanilishiga ham e'tibor berildi.

## 3. TAHLIL NATIJALARI VA MUHOKAMA

O'zbek va ingliz tillarida zoonim komponentli maqollarni bir qancha guruhlarga ajratgan holda tahlil qilish mumkin. Bularga sut emizuvchilar, qushlar, baliqlar, hasharotlar kabi guruhlar kiradi. Aynan ushbu tadqiqotda sut emizuvchi hayvonlar nomlari qatnashgan maqollar tahlil qilindi.

Shuningdek, hayvonlar bilan bog'liq maqollarda ularning ma'lum tana a'zolari ham metafora va metonimiya modeli asosida interpretatsiya qilingan.

O'zbek va ingliz tilida faol qo'llaniluvchi maqollarda bir qancha sut emizuvchi hayvonlar ishtirok etgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra it, ot, tuya, bo'ri kabi HAYVON konseptiga kiruvchi leksemalar ijobjiy va salbiy ko'chimlarga uchragan.

### **It komponentli maqollar:**

*3.1. It hurar — karvon o'tar - Dogs bark, but the caravan goes on [5, 390].*

Manba maydoni (source domain)	Nishon maydoni( target domain)
<b>IT- DOG</b>	<b>g'iybat qiluvchi, doimo voqelikka salbiy munosabat bildirib turuvchi inson</b>
<b>HAYVON</b>	<b>INSON</b>

Ushbu maqolning o'zbek va ingliz tilidagi varianti juda o'xshash va bunda xalqlarning qadimiy hayotiga oid ma'lumotlar aks etadi. Hozirgi kunda bu maqolda qo'llangan *it* leksemasi *g'iybat qiluvchi, har qanday voqelikka salbiy munosabat bildirib turuvchi inson* sifatida tushuniladi. Ya'ni *it* hayvonining harakatdagi narsa-predmetni sezganda vovullab turish holati metafora modeli asosida insonga ko'chirilgan va adresat tomonidan salbiy ma'noda interpretatsiya qilinadi.

*3.2. Qari it ko'p yo'l bilar - An old dog barks not in vain [5, 69].*

Manba maydoni (source domain)	Nishon maydoni( target domain)
<b>QARI IT-OLD DOG</b>	<b>Tajribali, ko'pni ko'r gan inson</b>
<b>HAYVON</b>	<b>INSON</b>

Yuqoridagi maqolda *it* hayvon nomi sifatida tushunilmaydi. Ikki tildagi maqolda ham *it* leksemasi orqali tajribali, ko'p qiyinchiliklarni boshidan o'tkazgan inson nazarda tutiladi. Bunga sabab *it* hayvoni azal-azaldan odamlarga yaqin uy hayvoni hisoblanadi. Aynan *it*ning odamlarga yaqin ekanligi uchun uni ko'chimga uchratish holati maqollarda ko'p uchraydi va bu maqolda ham metafora modeli asosida ma'nno ko'chirilgan.



### 3.3. *Qopag'on it tishini ko'rsatmas - Barking dogs seldom bite* [5, 18].

Manba maydoni (source domain)	Nishon maydoni( target domain)
<b>QOPAG'ON IT</b>	<b>Jim yuruvchi, kek saqlovchi</b>
<b>BARKING DOGS</b>	<b>Sirlarini yashira olmaydigan</b>
<b>HAYVON</b>	<b>INSON</b>

Ushbu maqolning o‘zbek tilida “yuvosh it hurmay tishlar”, “sinalmagan otning sirtidan o‘tma” [6,472] kabi variantlari mavjud. Maqolning o‘zbek tilidagi shaklida *qopag'on it*, ingliz tilidagi variantida esa *barking dogs - huradigan itlar* birikmalari qo‘llanilgan. Itga xos qopag‘onlik, hurish harakatlari insonga metafora orqali ko‘chirilgan va salbiy harakat oldidan ogohlantirish mazmunida ishlatiladi.

It haqida keltirilgan yuqoridagi maqollarning o‘zbek va ingliz tillarida tarjimalari va kognitiv modellari bir-biriga o‘xshash. Ikki tilda ham *it* bilan bog‘liq shunday maqollar borki, ularning muqobili boshqa tillarda uchramaydi. *It* hayvoni o‘zbek tilidagi maqollarda asosan salbiy ma’noda konseptuallashtiriladi. Buni quyidagi maqollar misolida ko‘rishimiz mumkin.

#### **It komponentli o‘zbek maqollari:**

(1) *It itga buyuradi, it quyrug‘iga* [6,164-165]

Manba maydoni (source domain) → Nishon maydoni (target domain)  
*it* Buyurilgan ishni qilishga erinadigan,  
 ishyoqmas, mas’uliyatsiz , dangasa inson

(2) *It ko‘zi tutun bilmas* [6, 166]

Manba maydoni (source domain) → Nishon maydoni (target domain)  
*it* Sha’ni va obro‘siga achchiq gaplar aytilsa ham jum  
 turaveradigan inson

(3) *It oydinda o‘ynashar* [6,166]

Manba maydoni (source domain) → Nishon maydoni (target domain)  
*it* Tuni bilan sang‘ib , shovqin solib , boshqalarga uyqi  
 bermaydigan inson

(4) *It qutursa, egasin qopar* [6, 169]

Manba maydoni (source domain) → Nishon maydoni (target domain)  
*it* Katta mansabga chiqib yoki boyib tarbiya bergen ota-onasi,  
 ta’lim bergen ustoziga  
 nisbatan hurmatsizlik qilgan inson

Yuqoridagi o‘zbek xalq maqollarida *it* leksemasi salbiy xarakter va xatti-harakatlarga ega insonlarni nazarda tutmoqda. Itga xos dangasalik, sayoq yurish kabi harakatlar metaforik ma’no ko‘chishiga uchramoqda. Ingliz tilidagi *it* leksemasi qatnashgan maqollarda ham xuddi shunday ko‘chimlar kuzatiladi va ular ijobiy va salbiy holatlarni aks ettiradi.

#### **It komponentli ingliz maqollari:**

(1) *A dog that will fetch a bone will carry a bone* [8,143 ]

*Suyak olib keladigan It suyakni olib yuradi*

Manba maydoni (source domain) → Nishon maydoni (target domain)  
*it* g‘iybatchi va gap tashib yuruvchi inson



(2) *He is a good dog who goes to church* [8,224 ]

*U cherkovga boradigan yaxshi it*

Manba maydoni (source domain)

*it*

→ Nishon maydoni (target domain)

Odobli, xushxulq kishi

(3) *It is a poor dog that's not worth whistling for* [8, 400]

*Bechora it hushtakbozlikka arzimaydi.*

Manba maydoni (source domain)

*it*

→ Nishon maydoni (target domain)

kambag‘al, chorasiz odam

#### 4. XULOSA

Ushbu maqolada zoonim komponentli qatnashgan 10 ta o‘zbek va ingliz tillaridagi maqollar kognitiv-semantic nuqtayi nazardan tahlil qilindi. Bu jarayonda HAYVON konseptiga kiruvchi *it* leksemasi va unga xos harakat, holat, tashqi ko‘rinish tushunchalarining Lakoff va Turnering manba maydoni (source domain) va nishon maydoni (target domain) nazariyasiga ko‘ra metaforik ma’no ko‘chishi yo‘llari ishlab chiqildi. Ushbu nazariyaga ko‘ra yuqoridagi leksemalar qatnashgan maqollarning o‘zbek va ingliz tilidagi variantlarida quyidagi farqlar aniqlandi.

➤ *It* leksemasi o‘zbek tilidagi maqollarda asosan salbiy ma’noni ifodalash uchun ishlatiladi. Ingliz tilidagi maqollarda esa *it* leksemasi nisbatan ijobiy metaforik ko‘chimga uchragan.

Ushbu tadqiqot orqali o‘zbek va ingliz tilidagi hayvon nomlari qatnashgan ayrim maqollar tahlilga tortildi va bu yo‘nalishda yanada kengroq tadqiqot olib borish maqollarning kognitiv-semantic xususiyatlarini qiyosiy aspektida o‘rganilishi yo‘lida yangi sahfani ochadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mieder W. Proverbs: A Handbook. London: Greenwood Press, 2002. –P. 321.
2. Lakoff G. and Johnson M. Metaphor We Live By: Chicago: The University of Chicago Press, 1980. -P. 242.
3. Lakoff G. and Turner M. More than Cool Reason: A Field Guide to Poetic Metaphor. Chicago: University of Chicago Press, 1989. -P. 237.
4. Sameer I. H. A Cognitive Study of Certain Animals in English and Arabic Proverbs: A Comparative Study. *International Journal of Language and Linguistics*, 2016. –P. 133 - 143.
5. Karomatova K.M, Karomatov H.S. PROVERBS-MAQOLLAR- ПОСЛОВИЦЫ: Toshkent: Mehnat, 2000. 400 b.
6. Shorahmedov Sh, Shomaqsudov Sh. Hikmatnoma: Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi bosh redaksiyasi, 1990. 527 b.
7. Mirzayev T, Musoqulov A, Sarimsoqov B. O‘zbek xalq maqollari: Toshkent: “Sharq”. 2005. 509 b.
8. Speake J. The Oxford Dictionary of Proverbs: Oxford University Press, 2008. –P. 625.

